



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 12-noyabr, № 234 (9129)

Chorshanba

Quyimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skanrlang.



ZAMONAVIY FUTBOL STADIONI YOSHLAR UCHUN ILHOM, XALQIMIZ UCHUN IFTIXOR RAMZI BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni Yangi Toshkentda yirik sport inshooti — zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamal toshi qo'yish marosimida ishtirok etdi.



So'nggi besh yilda mamlakatimiz futbol sohasida tub burilish davri bo'ldi. Jumladan, mahalliy chempionatlar tizimi isloh qilib, bolalar va o'smirlar akademiyalari tashkil etildi, hududlarda 75 ta katta va 302 ta ministadion faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, 2017-yilda yurtimizda FIFA va Osiyo futbol konfederatsiyasi talabalariga javob beradigan maydonlarning soni atigi 3 ta bo'lgan. Bugun ularning soni 10 tadan oshdi.

Yaqinda Yuqori Chirchiq tumanida zamonaviy Milliy futbol markazi qurib bitkazildi. Futbol maktablarida 65 mingdan ortiq yoshlar mashg'ulotlar o'tkazmoqda. Ushbu maktablarga jahonning nufuzli futbol klublaridan trenerlar, sport tibbiyoti va farmakologiyasi bo'yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan.

Futbolchilarni mahalladan boshlab seleksiya qiladigan tizim yaratildi. Bunga alohida imtiyozlar joriy qilinib, 9 mingdan ziyod mahallalarning 70

foizida futbol uchun minimaydonchalar tashkil etildi.

Shuningdek, 1,5 mingta maktabning futbol stadionlari ta'mirlanib, 1 milliondan ziyod o'quvchi va mahalla yoshlari qamrab olindi. Yoshlar o'rtasida mahalla, tuman, viloyat va respublika turnirlarini an'anaviy o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Musobaqalarda o'zini ko'rsatgan iqtidorli yoshlar futbol maktablariga to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinmoqda.

Bu sa'y-harakatlar o'z natijasini bera boshladi.

— Futbol bo'yicha olimpiya terma jamoamiz o'tgan yili Parijdagi olimpiadada birinchi marotaba ishtirok etdi. Tariximizda ilk bor milliy terma jamoamiz kelgusi yilda bo'ladigan jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ayni kunlarda Qatarda bo'layotgan jahon chempionatida o'n yetti yoshgacha bo'lgan futbolchilarimiz Osiyo chempioni sifatida mamlakatimiz sharafini himoya qilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari marosimida.

Bugun dunyoning turli nufuzli klublarida to'p surayotgan 20 nafar futbolchimizning umumiy transfer qiymati 60 million dollardan oshdi. Ayniqsa, o'tgan oydan boshlab hamyurtimiz Abduqodir Husanov Osiyoning eng qimmat futbolchisiga aylangan barchamizga faxr va iftixor bag'ishlaydi.

Bu natijalar so'nggi yillarda yaratilgan imkoniyatlar hisobiga milliy futbol maktabining xalqaro darajada tan olina boshlaganidan dalolat.

— Yaqinda FIFA prezidenti Janni Infantino mamlakatimizga tashrifi davomida O'zbekistonda futbolga e'tibor, yaratilgan infratuzilma, boshqarish tizimidagi islohotlar bilan yaqindan tanishib, ushbu sportdagi tub o'zgarishlarni yuqori baholadi. Jahon Infantino samimiy muloqotimiz chog'ida xalqaro futbol hamjamiyatining mamlakatimizga bo'lgan ishonchi tobora ortib borayotgani, O'zbekiston futbolni "Osiyo grandlari" darajasida ekanini alohida ta'kidladi, — dedi

Prezident.

2-oktyabr kuni FIFA Kengashi yig'ilishida futbol bo'yicha 20 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida 2027-yildagi jahon chempionatini O'zbekiston va Ozarbayjonda o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Ushbu jahon chempionati doirasidagi o'yinlar ikki mamlakatdagi 3 tadan stadionda o'tkaziladi. Jahon chempionatlarining final va yarimfinal o'yinlari sig'imi 50 mingdan ko'p bo'lgan stadionda o'tkazilishi FIFA talablaridan biri hisoblanadi.

— Shu bois mamlakatimiz futbol uchun muhim loyha — Yangi Toshkent stadioni qurilishini boshlaymiz. Qiymati 100 million dollarlik ushbu stadion qurilishi uchun nega aynan Yangi Toshkent hududi tanlandi? Sababi Yangi Toshkent kelajakda mamlakatimizning yangi imkoniyatlar va ilg'or g'oyalari markaziga aylanadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Yangi Toshkent hududidagi barcha loyihalar zamonaviy me'morchilik va

milliy qadriyatlar uyg'unligida ekologik va "aqli boshqaruv"ga asoslanib barpo etilmoqda. Shu umumiy konsepsiya asosida quriladigan yangi stadion ham tabiat bilan uyg'un bo'ladi hamda "yashil energiya", "aqli boshqaruv" va "qulay muhit" tamoyillariga asoslanadi.

Yangi Toshkent stadioni FIFAning barcha talablarga mos ravishda barpo etiladi hamda Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilmaga ega futbol maydonlaridan biri bo'ladi.

Bu inshoot nafaqat 2027-yilgi 20 yoshgacha bo'lganlar o'rtasidagi jahon chempionati uchun, balki butun o'zbek futbol va yoshlar sportining kelgusi o'n yillik rivoji uchun xizmat qilishi ta'kidlandi.

Qayd etish lozim, mamlakatimizning yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatiga mezbonlik qilishi xalqaro hamjamiyatning O'zbekistonga bo'lgan ishonchi va hurmatining yana bir ifodasidir.

Shu munosabat bilan chempionatga

tayyorgarlik bo'yicha alohida davlat dasturi qabul qilinishi aytiladi. Infratuzilma, transport, mehmonxona, tibbiy xizmat va volontyorlik tizimlari bo'yicha mas'ul vazirliklarga aniq vazifalar belgilab beriladi.

— Yangi Toshkent stadioni uchun hozir biz qo'yadigan tamal toshi — bugungi mehnatimizning va ertangi g'alabalarimizning asosidir. Ishonamanki, bu ukan inshoot yoshlar uchun ilhom, xalqimiz uchun iftixor ramzlaridan biri bo'lib, yurtimizdagi millionlab futbol muxlislariga katta sovg'a bo'ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent stadioni poydevonga kapsula qo'yib, qurilishini boshlab berdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati xabar berdi.

O'ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti
Vladimir Putin bilan telefon orqali
muloqot qildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Tovar ayiribboshlashning o'sish sur'atini saqlab qolish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiyani, shu jumladan, energetika sohasidagi qo'shma loyihalarni ilgari surish, hududlarning ishlabarmonlik aloqalari va madaniy-gumanitar almashinuvini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yil 22-oktyabr kuni Moskva viloyatida o'tgan O'zbekiston va Rossiya hududlari kengashining ikkinchi yig'ilishi samarali bo'lgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

3-dekabr kuni bo'ladigan O'zbekiston — Rossiya Hukumatlararo komissiyasining navbatdagi yig'ilishi va uning doirasida qo'shma biznes-forumini samarali o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi, bo'lajak tadbirlarning rejasini muhokama qilindi.

O'ZA.

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, atmosfera havosini yaxshilash, yashil hududlarni ko'paytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmog'ida.

Lekin amaldagi tizimdagi tarqoqlik, mas'uliyat va vakolatlarning turli idoralar o'rtasida bo'linib ketgani natijasida

ishlar samarasi ham doimo kutilgan darajada bo'lmayapti.

Shu munosabat bilan yiqilishda sohada boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Atrof-muhitni saqlash, shaharlarda atmosfera havosini yaxshilash, yashil hududlarni rivojlantirish, tabiatga mas'uliyatli munosabatni

shakllantirish va tabiiy merosni muhofaza qilish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish hamda moliyalashtirishni markazlashgan holda olib borish taklif etildi.

Ekologik nazoratni alohida yondashuvlar asosida yo'lga qo'yish va mas'ul idoralarning vakolatlarini kengaytirish rejalari haqida ma'lumot berildi. Bunda,

sohadagi qoidabuzarliklarga qarshi tezkor chora ko'rish, daraxtlarning noqonuniy kesilishi, havo ifloslanishining oldini olish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish mexanizmlari, shuningdek, sanoatda ekologik tartibga solishni takomillashtirish va aholi punktlarida yashil hududlarning saqlanishini

ta'minlash choralarini ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni ma'qullab, ularni boshqaruvda sifat va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqish, nazorat va mas'uliyatni kuchaytirish nuqtayi nazaridan yanada takomillashtirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O'ZA.

Shukuh

KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATI — HAMISHA E'TIBORDA

O'zbekiston kasaba uyushmalari saroyida 11-noyabr — O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120-yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi vakillari, senatorlar, deputatlar, soha faollari, xalqaro mehnat va kasaba uyushmalari tashkilotlari rahbarlari qatnashgan ushbu tadbirda dastlab Davlat madhiyasi ijro etildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

O'zbekiston kasaba uyushmalari faollari va a'zolariga tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti rahbari — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY TAMOYILLAR KAFOLATI VA EKOLOGIK MASALALARGA TIZIMLI YONDASHUV

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotimizga daxldor masalalar, jumladan, O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilish, jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod etilgan shaxslar ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro Shartnomani ratifikatsiya qilish,

mahalliy ijro hokimiyati organlari hamda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini direktoriyalari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi. Parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar ham muhokamalari markazida bo'ldi.



KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATI – HAMISHA EʼTIBORDA



Tabrikda qayd etilganidek, ushbu bayramning yurtimizda Oʻzbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120-yilligi keng nishonlanayotgan kunlarda oʻtayotgani uning fayzi va shukuhini yanada oshirmoqda. Soʻnggi beshi yilda tizim faollanib saʼy-harakatlari bilan qariyb 500 ming nafar fuqaroning huquqlari taʼminlangan, korxona va muassasalarda 20 mingga yaqin jamoatchilik nazorati hamda gender tenglikka oid audit tadbirlari oʻtkazilgan, mehnat muhofazasi yuzasidan 21 mingdan ortiq kamchiliklar bartaraf etilgan, salama 1 million xodim va ularning oila aʼzolari, 1 ming 200 nafar urush va mehnat fronti faxriysi sanatoriyalarda sogʻlomlashtirilgan, 800 ming nafaqadan ziyod bolalar uchun yozgi dam olish imkoniyatlari yaratilganligi diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz kasaba uyushmalarining xorijiy davlatlardagi turdosh tashkilot hamda xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlanib borayotgani, Federatsiyaning oʻnga yaqin xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga aʼzo boʻlgani ham uning samarali faoliyatidan dalolat beradi.

Yurtimizda fidokorona mehnat eʼtirof qilmaydi. Shu maʼnoda, kasaba uyushmalari harakati rivojiga qoʻshgan munosib hisssasi uchun eng faol, fidoyi hamda tashabbuskor kasaba uyushma faollari davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni bilan davlat mukofotlariga sazovor boʻlishdi.

Tantanalı tadbirda Vatanimizning orden va medallarini Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva topshirdi.

Tadbirda soʻzga chiqqanlar soha rivoji yoʻlida koʻrsatilayotgan ulkan eʼtirof va eʼtibor

uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib.

— Bugun hayotimida eng quvonchli va unutilmas kun boʻldi. — deydi Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyati Kengashi raisi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi Sayyora Fayziyeva. — Chunki taqdirlanganlar orasida borilgim men uchun katta baxt va shu bilan birga, ulkan masʼuliyat ham yuklaydi, desam, mubolagʻa boʻlmaydi. Mukofot nafaqat menga, balki tizimdagi barcha harikaslarimga, jamoamizga berilgan yuksak eʼtirof deb bilaman. Kasaba uyushmalari faoliyati haqida gapiradigan boʻlsam, oxirgi 5-yilda barcha sohalarda qator ushbu tizimda ham tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, inson qadriini ulugʻlash, huquq va manfaatlarini himoyalash borasidagi ishlarga yangicha surʼat kiritib keldi.

Qolaversa, Yangi Oʻzbekistonning bu poradagi yutuqlari hamda qoʻlga kiritayotgan natijalari bugun xalqaro miqyosda ham tan olinib, yuksak eʼtiroflarga sazovor boʻlmoqda. Amalgʻa oshirilayotgan oʻzgarishlar, aholining turli toifalari, ayniqsa, xotin-qizlar hamda yurtdagi koʻrsatilayotgan eʼtibor, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasida olib borilayotgan tizimli ishlar natijasida aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligi ortib, yangi marralar sari olgʻa intilayotir.

— Noʻyabr oyi taassurotlarga, quvonchli lahzalarga boy boʻldi deb aytib olaman, — deydi Oʻzbekiston sogʻliqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi Farhodjon Xanapliyev. — Nega deganda, bu oyda Tibbiyot xodimlari kunini keng nishonladik. Ayni kunlarda esa

Kasaba uyushmalari kuni shukrati ham butun ham yurtlarimiz, soha faollarning yuz koʻzida sezilib turibdi.

Davlatimiz rahbarining kasaba uyushmalari faollarga yoʻllagan bayram tabrigini diqqat bilan tingladim. Negaki, har doim bunday tabriklarda qilingan ishlar eʼtirofi bilan birga amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalarga ham urgʻu beriladi. Bu esa kelgusi faoliyatimiz uchun “Yoʻl xaritasi” rolini bajarishi bilan anamiyatidir.

Yana bir jihatni taʼkidlab oʻtish kerak, 120-yillik tarixiga ega kasaba uyushmalari har doim xalq bilan, ishchi-xodimlar bilan birga boʻlib, ularning haq-huquqlari himoyasi, qonuniy manfaatlarini taʼminlashda faollik koʻrsatib kelmogʻda. Bu boradagi ishlar bugungi kunga kelib xalqaro standartlarga mos holda yangicha yondashuv asosida olib borilmoqda. Bu boradagi ishlar bugungi kunga kelib xalqaro standartlarga mos holda yangicha yondashuv asosida olib borilmoqda, bunday ish tutumi nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro maydonida ham eʼtirof etilayotir. Taqdim qilingan yuksak davlat mukofoti bezga yanada masʼuliyat yuldaydi va buni qalbdan his etgan holda faoliyatimizni davom ettiramiz.

Tadbirda taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda davlat, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar oʻrtasidagi ijtimoiy sheriklik uchun yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida mamlakatimiz kasaba uyushmalari faoliyati yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Yangi Oʻzbekistonning yangi kasaba uyushmalari yurtimizdagi islohotlar, yangilanish va oʻzgarishlardagi faolliklarini yanada oshirib, turli soha xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash borasida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmogʻda.

Joriy yilning 17-oktyabr kuni Prezidentimizning kasaba uyushmalari faollari bilan tarixiy uchrashuvi boʻlib oʻtgan, unda Yurtboshimiz tomonidan xalqning turmush darajasini va huquqiy himoyasini yaxshilash hamda sohani yanada xalqchil qilish yoʻlida bildirilgan tashabbuslar kasaba uyushmalari, mehnat ahliga boʻlgan doimiy eʼtibor sifatida mamlakatimizdagi sakkiz millionlik kasaba uyushma aʼzolarining qabida yuksak tuyulganligi aytilgan, ularga yangi kuch va ilhom bagʻishlagani alohida taʼkidlandi.

Shu bilan birga, tadbirda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan mehmonlar Oʻzbekistonda kasaba uyushmalari harakatining 120-yillik

shonli tarixi bilan tanishtirish imkoniga ega boʻldi. Xususan, badiiy sahna koʻrinishlari orqali yurtimizda ilk kasabachilik harakatining paydo boʻlishi, soʻngra Sirdaryo viloyati idora xodimlari va boxgallerlari kasaba uyushmasi, Turkiston farmatsevtika xodimlari uyushmasi, oshpaz va uy xizmatchilari, klavich va enkoʻzlar, matboʻa, mexanika ishlab chiqarish, shuningdek, quruvchilar kasaba uyushmalari tashkil etilishi, ularning ustavi qabul qilinishi tarixiy faktlar asosida koʻrsatib berildi.

Birinchi Oʻzbekiston kasaba uyushmalarining Kengashiga bundan bir asr oldin 1925-yilning mart oyida mazkur tashkilot boʻlib oʻtgan ushbu muhtasham saroyda asos solingan aytilib oʻtildi. Bu paytga kelib, kasaba uyushmalarini tashkil qilgan ziyolilarimiz tomonidan xalqimiz maʼnaviyati va maʼrifatini yuksaltirish ishlari keng yoʻlga qoʻyilgan namoyish etildi.

Jadidchilik harakati haqida koʻp yozilgan, tadqiqotlar qilingan. Biroq ularning kasabachilik harakatidagi faoliyati koʻpchilik uchun ayon boʻlmagan tarixiy fakt ekanini ham sahna koʻrinishlari orqali koʻrsatib berildi. Shu tariqa Oʻzbekiston kasaba uyushmalarining 1930 — 1941-yillardagi, ikkinchi jahon urushi davridagi, urushdan keyingi tiklanish vaqtidagi, 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin poytaxtimiz qayta qurilishi paytidagi, Vatanimiz mustaqillikni qoʻlga kiritgan yillardagi faoliyati aks ettirilgan lavhalar namoyish etildi.

Shundan soʻng keyingi toʻqqiz yilda Yangi Oʻzbekistonning yangi kasaba uyushmalari shakllangan, Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar mamlakat va xalqimiz hayotida keskin burilish yasaganini, soha faollari ishchi-xodimlar manfaatlarini hamisha himoya qilish bilan birga, ularni qoʻllab-quvvatlashga tayyor ekanligi sahna koʻrinishlari asosida aks ettirildi.

Tantanalı tadbirda konsert dasturi namoyish qilindi.

Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari — Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi raisi Zulayho Mahtamova ishtirok etdi.

Rahim SHERQULOV
("Xalq soʻzi").
Aikmal MUHAMMADOV olgan surat.

Onlayn uchrashuv TARIXIY ILDIZLARGA EGA MUNOSABATLAR

Oliy Majlis Senatida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Milliy majlisi oʻrtasidagi parlamentlararo hamkorlik boʻyicha guruhlarining onlayn uchrashuvi boʻlib oʻtdi.

Unda ikki mamlakat oʻrtasidagi doʻstona aloqalarini yanada mustahkamlash, oʻzaro hamkorlikning yangi yoʻnalishlarini belgilash hamda parlamentlararo muloqotni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, Oʻzbekiston va Vyetnam oʻrtasidagi munosabatlari qadimiy tarixiy ildizlarga ega. Bugungi kunda ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli barcha sohada aloqalar tobora izchil rivojlanib bormogʻda. Soʻnggi yillarda oʻtkazilgan oliy darajadagi uchrashuv va tashmirlar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqqani qayd etildi.

Shu bilan birga, madaniy-gumanitar sohada oʻzaro aloqalar yuzasidan ham fikr almashildi. Xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Vyetnam tili va madaniyati markazi faoliyat yuritishi, shuningdek, ikki davlat oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlar yoʻliga qoʻyilgani, bu esa xalqlar oʻrtasida yaqin munosabatlarni mustahkamlayotgani taʼkidlandi.

Uchrashuv yakunida hamkorlik boʻyicha parlamentlararo guruhlar faoliyatini tizimli yoʻlga qoʻyishga, ularning har yili kamida bir marta qoʻshma yigʻilishini oʻtkazishga hamda navbaidagi shunday tadbiri Oʻzbekiston Respublikasida tashkil etishga kelishib olinildi.

“Xalq soʻzi”.

Senator va yoshlar Bitiruvchilar bandligi borasidagi muammolar tahlili

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Odiljon Mamatkariyov boshchiligidagi ishchi guruhi Namangan viloyatida oʻrganish ishlari olib bormogʻda.

Kecha xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashida oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari bandligini taʼminlashni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan yigʻilish oʻtkazildi.

Taʼkidlanganidek, ayrim tuman va shaharlarda ishlar natijadorligiga erishishda qator kamchiliklar mavjud. Jumladan, bandlik koʻrsatkichlari umumiy viloyat darajasidan past boʻlgan hududlarga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli emasligi qayd etildi.

Shu munosabat bilan mutasaddi idora va tashkilotlarga aniq vazifalari yuklatildi. Xususan, har bir bitiruvchining bandligini taʼminlash boʻyicha mazzali ishlar tashkil qilish, ish beruvchilar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri hamkorlikni kengaytirish, mehnat yarmarkalarini tizimli oʻtkazish hamda ularning natijadorligini oshirish vazifalari belgilandi.

Yigʻilish yakunida ishchi guruhlariga qaror ijrosini nazoratga olish, mavjud muammolarni qisqa muddatlarda bartaraf etish va amaliy natijalarga erishish yuzasidan koʻrsatmalar berildi.

“Xalq soʻzi”.

HAYOTIY TAMOIYILLAR KAFOLATI VA EKOLOGIK MASALALARGA TIZIMLI YONDASHUV

Islomiy bank faoliyatini joriy etishning huquqiy asosi

Majlisda Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish hamda yangi turdagi bank xizmatlarini joriy qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga islomiy bank faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilovchi qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Muhokamalar davomida deputatlar tomonidan islomiy bank va moliya operatsiyalariga oid huquqiy normalar loyihasida aks ettirilganligi maʼqullandi. Shuningdek, moliya standartlari hamda investitsiyaviy depozitlarga oid normalar boʻyicha avval bildirilgan takliflar inobatga olinganligi xalq vakillari eʼtiborida boʻldi.

Loyihada islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olish boʻyicha talablari aniq belgilanayotgani, islomiy moliya operatsiyalariga oid tushunchalar ochib berilayotgani hamda islomiy bank amaliyotlarini bajaruvchi banklarga islomiy moliya standartlari asosida mijozlarni moliyalashtirish uchun savdo faoliyatini amalga oshirishga hamda yuridik shaxslarni tashkil etish va ularning ustav fondlaridagi ulushlarni yoki aksiyalarni olishga ruxsat berilishi nazarda tutilgani deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Shuningdek, deputatlar qonun loyihasi bilan islomiy moliya operatsiyalariga soliq solish boʻyicha tegishli tartibning joriy qilinayotgani moliyalashtirishga oid xizmatlar koʻlamini oshirishga katta turki boshini taʼkidlashdi.

Kazkur qonun loyihasi mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga, “yashirin iqtisodiyot” ulushini kamaytirishga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Jazoni oʻtashdan shartli ozod qilingan shaxslar ustidan probatsiya nazorati takomillashtirilmoqda

Deputatlar jazoni oʻtash muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi oʻqishda muhokama etdi.

Taʼkidlanganidek, probatsiya instituti jazoni oʻtab chiqqan yoki jazoni oʻtash muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulqi ustidan samarali nazorat oʻrnatish orqali ularni qayta tarbiyalash, jamiyat hayotiga qaytib kirishi uchun sharoit yaratish, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda samarali vosita boʻlib xizmat qilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi ham aynan jazoni oʻtashdan shartli ozod qilingan shaxslar ustidan samarali probatsiya nazoratini tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan.

U bilan Jinoyat kodeksining 73-moddasiga shartli ozod qilingan shaxslarga belgilangan vaqtida nazorat organlarida roʻyxatdan oʻtib turib majburiyatni yuklash mumkinligi nazarda tutilmoqda. Bu, oʻz navbatida, jazodan shartli ozod etilgan shaxslar ustidan tizimli va samarali nazorat oʻrnatish imkonini yaratadi.

Qonun loyihasi bilan Jinoyat-jirroiya kodeksi yangi 281-bob bilan toʻldirilib, unda jazoni oʻtash muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan probatsiya nazoratini amalga oshirish, nazorat talablarini buzgan shaxslarga qoʻshimcha majburiyat yuklash yoki jazoni qayta oʻrnatish, jumladan, shaxs zimmasidan ayrim majburiyatlarni chiqarish haqida sudga taqdimnoma kiritish tartibi va asoslar belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar koʻtardi. Xususan, OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi Zafar Xudoyberdiyev loyihaning muhimligini taʼkidlagan holda ayrim muhokazalarni bildirdi. Deputatning aytishicha, qonun loyihasini ishlab chiqish uchun asos sifatida “Probatsiya toʻgʻrisida”gi Qonunning 71-moddasi ijrosini taʼminlash kehtiriyapti. Mazkur qonunning 71-moddasida Jinoyat kodeksining 73-moddasiga qator oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganini koʻrish mumkin. Lekin qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksining 73-moddasi 5-qismi “ye” bandi sifatida taklif etilayotgan “vaqt-vaqt bilan kelib jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning xulqi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlarda roʻyxatdan oʻtib turib” degan

majburiyat loyiha konsepsiyasida kehtirilgan “Probatsiya toʻgʻrisida”gi Qonunning 71-moddasi bilan Jinoyat kodeksining 73-moddasiga kiritilmagan. Bu norma taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan kiritilayapti xolos. Agar maqsad “Probatsiya toʻgʻrisida”gi Qonunning 71-moddasi ijrosini taʼminlash boʻlsa, nega bu qonun loyihasi bilan unda koʻzda tutilmagan yangi norma taklif etilayapti?

Shuningdek, qonun loyihasi bilan Jinoyat-jirroiya kodeksining 1663-moddasi toʻldirilyapti. Unda jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning majburiyatlarini belgilanmoqda. Bunga asos sifatida yana “Probatsiya toʻgʻrisida”gi Qonun hamda Jinoyat kodeksining 73-moddasi kehtirilyapti. Biroq ushbu hujjatlarida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning sud tomonidan zimmasiga yuklangan majburiyatlar aks etgan. Toʻldirilayotgan 1663-moddada esa sud tomonidan yuklangan majburiyatdan tashqari “taqdiriga binoan probatsiya boʻlinmasida yoki harbiy qism qomondonligida hozir boʻlishi shartligi” degan yangi majburiyat yuklanayapti. Nima uchun asoslanmagan yangi majburiyat luri kiritilyapti?

Qonun tashabbuskorlari bu boʻyicha atroflicha tushuntirish berib oʻtsindi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilinadi

Majlisda Oʻzbekiston Respublikasi bilan Vengriya oʻrtasida ushlab berish toʻgʻrisidagi Shartnoma (Budapest, 2025-yil 20-may) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Bugungi kunda terrorizm, ekstremizm, iqtisodiy jinoyatlar va uyushgan jinoyatchilikning turli koʻrinishlaridan kelib chiqadigan xavf-xatarlar ortib borayotgani davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va bu sohada huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlarga huquqiy yordamni yoʻlga qoʻyish va uni tizimli ravishda amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar Oʻzbekiston va Vengriya oʻrtasida ushlab berish masalalari boʻyicha amalda shartnomaviy asos mavjud emasligi ikki tomonlama hamkorlik imkoniyatlarini cheklamoqda.

Mazkur shartnoma muqaddima va 26 ta moddadan iborat boʻlib, unda jinoyat sodir

etgan shaxslarni jinoliy javobgarlikka tortish yoki ularga nisbatan chiqarilgan hukmni ijro etish maqsadida ushlab berish tartibi, asoslar va shartlari belgilangan.

Shartnoma kuchga kirishi natijasida Oʻzbekiston va Vengriya huquqiy muhofaza etuvchi organlari oʻrtasida jinoyat ishlarni tergov qilish va sudga koʻrish samaradorligi oshadi. Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxslarning jazodan qochib qutulishiga yoʻl qoʻymaslik, yaʼni javobgarlikning muqarrarliligi prinsipi taʼminlanadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Davlat bojini toʻlashda imtiyozlar

Majlisda “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga iqtisodiy sudlarga murojaat qilishda mahalliy iro hokimiyati organlari hamda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini direktivlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi” qonun loyihasi birinchi oʻqishda muhokama qilindi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda yer resurslaridan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlariga yer uchastikalarni afzalit jarayonining ochiqligi va shaffofligini taʼminlash, yer qonunchiligi buzilishining oldini olish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmogʻda.

Ushbu qonun loyihasi bilan mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus direktivlari, agar ular tadbirkorlik subyektlari tomonidan yerdan foydalanish shartlari buzilgan holda iqtisodiy sudlarga daʼvo arzasini murojaat qilsa, davlat boji toʻlashdan ozod etilishi belgilanmoqda. Bu normalar yer resurslaridan samarali

foydalanishni taʼminlash, yer munosabatlarida qonuniylilni mustahkamlashga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan ayrim aniqlashtiruvchi savollar berildi. Deputatlar qonun loyihasining maqsadi yerdan oqilona foydalanish ekanini taʼkidlagan holda tadbirkorlar manfaatli bilan bogʻliq ayrim masalalar borligini, shu nuqtaiy nazardan uning baʼzi normalarini qayta koʻrib chiqish maqsadiga muvofiqligini qayd etdi.

Qonun tashabbuskorlari koʻtarilgan masalalar boʻyicha atroflicha izoh berib oʻtsindi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Vazirlarga parlament soʻrovi yuborildi

Deputatlar “2019 — 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” ijrosini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi parlament soʻrovini yuborish haqidagi masalani koʻrib chiqdi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, sur resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy etish borasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Oʻtgan vaqtga “2019 — 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi”da belgilangan vazifalar ijrosi doirasida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qoʻllash” loyihasi asosida 2023-yilda energetika tariff

islohotlari oʻtkazildi. Natijada respublikada jami 6,3 mln. tonna karbonat angidrid ekvivalentida “Issiqxona gazlari” ajratmalari qisqartirildi.

Mazkur qisqartirilgan “Issiqxona gaz”ning maʼlum qismini (500 ming tonna karbonat angidrid ekvivalentida) xalqaro uglerod birligini savdosiga yoʻnaltirish orqali 7,5 mln. AQSH dollari miqdoridagi grant mablagʻlari jalb etildi. Resurslarni tejash koʻrsatkichlari boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 6,3 mln. kVt/sotat energiya, 82 ming m3 dan ortiq suv, 1 050 tonnadan ziyod xomashyo tejashiga erishilgan. Joriy yil davomida yirik sanoat va sement ishlab chiqaruvchi korxonalarning 140 tasida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini oʻrnatilgan.

Bundan tashqari, sanoat korxonalarini tomonidan oʻziga tegishli boʻlgan va tutash hududlarga “yashil belbogʻ”lar barpo etish boʻyicha 2024-yilning bahor hamda kuz mavsumlarida 11,8 mln. tup daraxt va buta koʻchatlarini ekish ishlati amalga oshirilgan. Oʻrmon bilan qoplanganlik darajasini oshirish maqsadida 2024-yilda davlat oʻrmon fondining foydalanilmayotgan 7 000 gektar yerlari oʻzlashtirilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda atrof-muhitni asrash, atmosfera havosini muhofaza qilishda oʻz yechimini kuta oltgan ayrim masalalar bor. Ular tizimli yondashuvni, barcha resursni jalb qilgan holda yechimlar topishni talab etmoqda.

Xususan, deputatlarining saylovchilar bilan uchrashuvlarida, saylov okrugidagi oʻrganishlarda aholi tomonidan atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilarni chiqaruvchi va meʼyoriydan ortiqcha ifloslangan oqova suvlarini hosil qiluvchi korxonalar holatini baholash va zararli tashlamalarni kamaytirish, mahsulotlarni ishlab chiqarishda va xizmatlar koʻrsatishda texnologik jarayonlarni “yashil sertifikat” bilan ekologik sertifikatlashtirish va ekologik markirovka, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillarining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslanilgan tushuntirishlar berish haqida Oʻzbekiston, atrof-muhitni muhofaza qilish va qilin oʻzgarishi hamda iqtisodiyot va moliya vazirlarga parlament soʻrovi yuborildi.

“Xalq soʻzi”.

ISLOHOTLAR INSON VA UNING QADRI UCHUN

Prezidentimizning kuni kecha Toshkent davlat tibbiyot universitetiga tashrifi va mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar bilan yaqindan tanishishi katta ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Tashrifi davomida mamlakatimiz tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar raqamlashtirish jarayonlari va ta'lim sifatiga oid ishlarga bag'ishlangan taqdimotlar ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

Davlatimiz rahbariga taqdim etilgan "DMED" yagona elektron axborot tizimi imkoniyatlari tibbiyot tizimining raqamlashtirilib bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini aniq ifodalaydi. Mazkur tizim orqali 36 million nafardan ortiq fuqarolarning tibbiy ma'lumotlari yagona bazada jamlandi. "Online-shifokor" xizmati aholiga masofadan tibbiy maslahat olish imkonini yaratadi. Shuningdek, "Elektron retsept" tizimi orqali orqichka dorilar yozish holatlari 40 foizga kamaydi va dorilar ayiruvchisi shifofoshtadi. Barcha tibbiy ma'lumotlar biometrik himoya ostida saqlanib, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlanadi.

Prezident ta'kidlaganidek, bu o'zgarishlar nafaqat aholi uchun qulaylik va sifatli xizmat, balki tibbiyot xodimlari uchun samaradorlik, davlat uchun shaffoflik va tojkorlikni ta'minlaydi. Shu bois har bir tibbiyot xodimining malakasini oshirishi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, avvalo, inson manfaatlariga, xalqimizning bugungi kunidan rozi bo'lib, har jihatdan qulay sharoitda turmush kechirishiga qaratilgan. Ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarning nafaqat markazlarda, balki chekka hududlarda ham o'z

vaqtda amalga oshirilishi odamlar kayfiyati, islohotlarga ishonchini belgilaydi.

Bugungi kunda aholi o'rtasida ijtimoiy soha obyektlariga bo'lgan talab yuqori. Yillar davomida chekka hududlarda ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmatga yetarli darajada e'tibor qaratilmagligi oshbu sohalarida ishing uzdan chiqishiga olib keldi. Ammo keyingi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar jarayonida birlamchi tibbiy xizmatni rivojlantirish, ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada chekka hududlarda ham zamon talablariga mos tibbiy muassasalar, maktabgacha ta'lim maskanlari barpo etilmoqda.

Tashrif davomida universitetning zamonaviy simulyatsion laboratoriyalari, reanimatsiya, operatsiya, shoshilinch yordam va turli profil bo'yicha amaliyot xonalarida yaratilgan shart-sharoitlar ham ko'zdan kechirildi. Sohaga sarflamayotgan mablag' va qaratilayotgan e'tibor talabalarining amaliyot orqali bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab, sog'liqni saqlash sohasida zamonaviy talablarga javob bera oladigan malakali mutaxassislar sifatida yetishib chiqishiga zamin yaratmoqda.

Rustam XOLMURODOV,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi.

AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN SA'Y-HARAKATLAR

Yaqin yillarda tibbiyot yo'nalishining rivoj va yutuqlari borasida qiyosiy fikrlar bir oz rahot bilan tilga olinardi. Chunki soha moddiy-texnika bazasining nochorligi, malakali kadrlar borasidagi taqchiliklarga dunyo imkon bermaydi. Ammo so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimiga yo'natilgan 230 trilyon so'mlik mablag' natijasida 187 ta yangi poliklinika va shifoxonaning ishtirokida, 1 244 ta tibbiyot muassasasining rekonstruksiya qilinib, jihatlashi mamlakatimizda sog'liqni saqlash xizmatlari aholiga yaqinlashtirishda muhim qadam bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Natijada birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foizga oshdi, yuqori texnologiyali diagnostika va davolash usullari hududlarga yetkazildi, murakkab operatsiyalar viloyat markazlariga, kam invaziv amaliyotlar esa tuman darajasiga tushirildi. Birinchi marta 45 ta tumanida buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilishi aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengayitirdi.

Albatta, bularning barchasini ta'limga e'tibor qaratmasdan uddalash qiyin. Shu bois Toshkent davlat tibbiyot universiteti bazasida uchta oliy ta'lim muassasasi birlashtirildi, Urganch davlat tibbiyot instituti tashkil etildi, sakkozta tibbiyot oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi. Bu esa zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini yanada kengayitirdi.

Toshkent davlat tibbiyot universitetida talabalar soni 29 864 nafari ga yetgani, ta'lim jarayonlarining eng zamonaviy talablar darajasiga ko'tarilishi, raqamlashtirishning faol davom etishi o'quv muassasalari jahon andozalariga moslashayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bunda zamonaviy tibbiyot muassasalarini barpo etish, sun'iy intellekti joriy qilish va ilg'or uskunalarining barcha hududlarga yetkazib berilishi, har bir tibbiyot xodimining malakasini oshirishi va zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

"Raqamli sog'liqni saqlash markazi" faoliyati orqali barcha tibbiyot muassasalarining faoliyati real vaqt rejimida kuzatilib, surunkali kasalliklar va aholi salomatligi ko'rsatkichlari tahlili qilinmoqda. Bu esa tibbiyot tizimining samaradorligini oshirish, aholiga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish imkonini yanada kengayitirdi.

Demak, mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha qolga qolgan islohotlar natijalar aholi salomatligiga yuksak e'tibor bilan amaliy ifodasidir.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

TIBBIY XIZMAT SIFATI YANADA YAXSHILANADI

Bugungi kunda tibbiyot sohasi yurtimiz taraqqiyotining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, desak, mulohaza qila olmaymiz. Sog'liqni saqlash tizimining rivojida tibbiyot xizmatining roli yanada oshib bormoqda. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar butun soha uchun yangi davrni boshlab berdi.

Ilgari, asosan, poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortiqi hududlarda amalga oshirilmoqda. Yuzlab murakkab amaliyotlar viloyat markazlariga, kam invaziv operatsiyalar tuman darajasiga tushirildi. Bugungi tibbiyotdagi o'zgarishlarni qishloq va o'ta hududlarda yashayotgan yuzlab odamlarimiz his qilmoqda, xalqaro tashkilotlar, tahlil va reyting markazlari e'tirof etmoqda.

Kuni kecha davlatimiz rahbari Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda

jonkuyar shifokorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, tuman va viloyat bosh shifokorlari respublika markazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri ishtirokida, integratsiyalashtirilgan tizim joriy qilindi. Tuman va viloyat darajasida kasalliklarning oldini olish va samarali davolash bo'yicha yangiliklar olib kiritgan viloyat, tuman sog'liqni saqlash bo'limlari, oliyviy poliklinika mudirlariga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi" unvoni, orden va medallari, 30 million so'mdan pul mukofoti berilishi soha mutaxassislariga yuksak e'tibor

namunasidir. Uzoq yillik tajriba xodimlarga sanatoriyo'lanmalar, farzandani oliy ta'limga qabul qilganda to'lov shartnomalari uchun 30 foizlik chegirma taqdim etiladi.

Yoshlar va malakali kadrlar tayyorlashda tibbiyot oliygo'limlari yangi fakultetlar ochilishi, davolash yo'nalishlari bo'yicha rezidentura va magistratura, oliy malakali hamshirlik yo'nalishi bo'yicha kvotalarning oshirilishi tizim sifatini tubdan yuksaltirishga qaratilgan, shubhasiz. Ayniqsa, xususiy sektor va davlat muassasalar hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi bois, bugungi kunda xususiy klinikalar soni 3 karraga oshib, ulardagi tibbiy xizmatlar respublika markazlari bilan tenglashganligi barchamizga ma'lum. Kalgisi yildan talabkorlarga zamonaviy ko'p tarmoqli klinikalarni tashkil qilish uchun imtiyozli mablag'lar ajratilishi, tibbiy

uskuha va tez yordam avtotransporti bo'yicha imtiyozlar muddati uzaytirilishi sohada raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bu orqali xalqimizga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishga erishiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan tibbiyot tizimidagi islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar b'iz deputatlar ham o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Tibbiyot va fannatsevtikaga doir qonunchilikni bugungi kun talablari asosida takomillashtirishga, sohaga old normativ-huquqiy hujjatlar ijro etilishidan ta'arichan parlament nazoratini olib borishga ustuvor ahamiyat qaratishimiz maqadga muvofiq.

Noliba INOYATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ISHONCHLI MULOQOT VA AMALIY QADAMLAR

So'nggi yillarda O'zbekistonning AQSH bilan aloqalar yangi bosqichga ko'tarilmogda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan ochiq, pragmatik va manfaatli tashqi siyosat natijasida ikki davlat o'rtasidagi ishonchli muloqot yo'lga qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining 5-6-noyabr kunlari AQSHga tashrifi doirasida ham mamlakatlararo aloqalarini yanada mustahkamlaydigan, uzoq yillik hamkorlikni yuqori nuqtaga olib

chiquvchi qator manfaatli uchrashuvlar o'tkazildi. Xususan, davlatimiz rahbari AQSH Kongressi vakillar palatasi a'zolari — Bill Xayzen, Kerol Miller va Sidni Kamllager-Davni qabul qildi. Suhbat chog'ida O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, qonun chiqaruvchi organlar darajasida hamkorlikni mustahkamlash, hududlararo aloqalarni kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, kongressmenlar vakillik qilayotgan Garbiy Vojniya, Michigan va Kaliforniya shtatlari bilan ishtirok chiqarish, energetika, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish istiqbolini muhokama etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev AQSH Senatidagi Markaziy Osiyo bo'yicha koks hammasi, senator Stiv Deyns bilan uchrashuvda Markaziy Osiyo bo'yicha kokus faoliyatiga yuqori baho berar ekan, bu tuzilma mintaqaviy barqarorlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rinni tutayotganini alohida qayd etdi. Uchrashuv chog'ida senator Stiv Deyns vakillik qilayotgan Montana shtati bilan aloqalarini yanada faollashtirish masalasi muhokama qilindi. Shtat ishbiarmonlarining O'zbekistonga tashrifi bo'yicha erishilgan kelishuv e'zoz manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim bosqich bo'lishi kutilmoqda.

Bu kabi tashabbuslar nafaqat federal darajadagi, balki hududlararo diplomatiyaning ham amaliy samarasini oshiradi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, ekologiya, ta'lim va turizm sohalarida Montana shtati bilan hamkorlik O'zbekistonning mintaqaviy rivojlanish strategiyasiga mos keladi. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbusi AQSH tomonidan izchil

qo'llab-quvvatlanayotgani muloqotda yana bir bor tasdiqlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning senator Stiv Deyns bilan uchrashuvi O'zbekiston—AQSH munosabatlarida "strategik sheriklikdan amaliy sheriklik" bosqichiga o'tilayotganini yaqqol ko'rsatdi. Bu nafaqat siyosiy darajadagi muloqot, balki real iqtisodiy, hududiy va madaniy natijalarga qaratilgan hamkorlikning ifodasidir.

6-noyabr kuni esa Vashington shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Eksport-import banki (Eksimbank) rahbari Jon Yovanovichni qabul qildi. Uchrashuv davlatimiz rahbarining vakillik qilayotgan Garbiy Vojniya, Michigan va Kaliforniya shtatlari bilan ishtirok chiqarish, energetika, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish istiqbolini muhokama etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev AQSH Senatidagi Markaziy Osiyo bo'yicha kokus hammasi, senator Stiv Deyns bilan uchrashuvda Markaziy Osiyo bo'yicha kokus faoliyatiga yuqori baho berar ekan, bu tuzilma mintaqaviy barqarorlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rinni tutayotganini alohida qayd etdi. Uchrashuv chog'ida senator Stiv Deyns vakillik qilayotgan Montana shtati bilan aloqalarini yanada faollashtirish masalasi muhokama qilindi. Shtat ishbiarmonlarining O'zbekistonga tashrifi bo'yicha erishilgan kelishuv e'zoz manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim bosqich bo'lishi kutilmoqda.

Uchrashuvda alohida e'tibor O'zbekiston aviaparkini modernizatsiya qilish, "Boeing" samolyotlarini yetkazib berish masalalariga qaratildi. Bu O'zbekistonning global transport infratuzilmasiga integratsiyalashuvi, miliy aviatsiya sohasining xalqaro darajadagi yangilanishi san qadamdur. Eksimbank ushbu jarayonda nafaqat moliyaviy hamkor, balki strategik ishonchli sherik sifatida qatnashadi.

Prezidentimizning AQSH Eksimbanki rahbari bilan uchrashuvi O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining yangi bosqichini

ifodalaydi — bu amaliy natijaga qaratilgan iqtisodiy diplomatiya modeli. U shunchaki siyosiy tashrif emas, balki real loyihalar, moliyaviy resurslar va texnologik imkoniyatlarni O'zbekistonga olib kiruvchi aniq qadamdur.

Xuddi shunday samarali uchrashuvlar kun bo'y ham davom etdi. Shu kuni Prezidentimizning AQSH Xalqaro Moliyaviy Taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh direktori Ben Blek bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

"DFC" — AQSHning milliy rivojlanish instituti bo'lib, rivojlantirilayotgan mamlakatlarda infratuzilma va sanoat sohasidagi loyihalarni moliyalashtirishda xususiy kapitalni jalb etadi. U dunyo bo'ylab yuzlab yirik investitsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab keladi.

O'zbekiston bilan "DFC" o'rtasidagi hamkorlikning faollashuvi, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining ochiqligi va islohotlarga tayyorligi bilan bog'liq. "DFC" uchun O'zbekiston — Markaziy Osiyodagi eng ishtirokchi va barqaror hamkorlardan bir.

Uchrashuvda amaliy sheriklikni chuqurlashtirish uchun qo'shma investitsiya platformasini yaratish tashabbusi ilgari surildi. Bu platforma orqali ustuvor loyihalarni moliyalashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, innovatsion sohalariga xususiy kapitalni jalb etish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, "DFC"ning Toshkent shahrida mintaqaviy ofisini ochish masalasi ham muhokama qilindi. Bu nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida tuzilma faoliyatini kengaytirishga zamin yaratadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev korporatsiyaning infratuzilma loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik asosida ishtirok etishining ahamiyatini alohida ta'kidladi. Bu model nafaqat Davlat byudjeti yukini kamaytiradi, balki biznesning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi va investitsiya muhitini yanada sog'lomlashtiradi.

"DFC" bilan bunday formatdagi hamkorlik — O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi va xalqaro moliyaviy tizim bilan uyg'unlashuvining amaliy ifodasi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning



Ben Blek bilan uchrashuvi O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining yangi diplomatiya — yangi investitsiyalar tamoyiliga asoslanganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari AQSHning yetakchi kompaniyalar, investitsiya fondlar va moliya institutlari vakillari bilan ham uchrashuv o'tkazdi. Tadbirida AQSH savdo vaziri Xovard Latnik, Prezidentning maxsus yordamchisi Rikki Gil, Prezidentning maxsus vakili Paulo Zampoli, qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari Stiven Vaden, shuningdek, "Google", "Meta", "Amazon", "Boeing", "McKinsey", "Air Products", "John Deere", "Cargill Cotton" kabi dunyo miqyosidagi yirik kompaniyalar rahbarlari qatnashdi.

Prezidentimiz uchrashuv davomida iqtisodiy hamkorlikning yangi ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. 2030-yilga borib O'zbekistonda 18 — 20 gigavattlik qayta tiklanuvchi quvvatlar yaratiladi, elektr energiyasining yarmidan ko'pi quyosh va shamol manbalaridan olinadi.

Bu maqsadda AQSH kompaniyalar bilan energetika infratuzilmasi, "yashil" texnologiyalar va strategik mineralar — uran, mis, volfram, molibden, grafit qazib olish va chuqur qayta ishlash bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyatga ega loyiha bo'lib, global ta'minot zanjirlarida O'zbekistonning o'rni mustahkamlaydi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari 2030-yilgacha transport infratuzilmasini rivojlantirishga 12 milliard dollardan ortiq mablag' yo'naltirilishini ma'lum qildi. Bu dastur doirasida avtomobil va temir

yo'l tarmoqlari, logistika terminallari hamda aeroportlarni modernizatsiya qilindi.

Zamonaviy iqtisodiyotning asosi raqamli texnologiyalar. Shu nuqtada O'zbekiston "Google", "Meta", "NVIDIA" bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. "Apple Pay" va "Google Pay" to'lov tizimlarini joriy etish, Raqamli akademiya va startap-xablar tarmog'ini yaratish loyihalari bu yo'nalishdagi eng muhim tashabbuslardir.

Bu tashabbuslar yoshlar bandligini oshirish, innovatsion tafaotlarni rivojlantirish va O'zbekistonni mintaqadagi IT markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadbir yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev AQSH kompaniyalarining investitsiya tashabbuslarini shaxsan qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini ta'kidladi. U O'zbekistonni "xosiy investorlar uchun ishonchli hamkor va muvaffaqiyat kafolati" sifatida taqdim etdi.

Bugun O'zbekiston nafaqat mintaqaviy iqtisodiy o'sish markaziga, balki global hamkorlar uchun barqaror, ochiq va raqobatbardosh maydonga aylanmoqda.

Vashingtondagi uchrashuvlar O'zbekiston — AQSH strategik munosabatlarning yangi iqtisodiy bosqichiga yo'l ochdi. Bu bosqichning asosiy belgisi so'zdan amaliy natijaga o'shish, ya'ni investitsiya, texnologiya va hamkorlikning real loyihalarga aylanishidir.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi.

Istiqlolli loyihalarni amalga oshirish borasidagi faol aloqalar

Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lib o'tgan "S5+1" formatidagi sammit shu kunlarda dunyo hamjamiyatining diqqat markaziga chiqdi.

Tashrif doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan yana bir bor oliy darajada muzokaralar o'tkazdi. Shuningdek, Qo'shma Shtatlar Kongressi va hukumati vakillari bilan uyushtirilgan uchrashuvlar ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalarining rahbarlari bilan alohida muloqotlar hamda ishbiarmon dasturlar vakillari ishtirokidagi davra suhbatlari ham juda samarali bo'ldi.

O'zbekiston va AQSH yetakchilari mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

Ikki davlat rahbarlari qo'shma loyihalarni ilgari surishning institutsional mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish muhimligini ta'kidladi. Bu o'zaro hamkorlikda amaliy natijalarni ko'paytirish, faol munosabatlarni turli sohalarida kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Prezidenti "S5+1" formatidagi sammitdagi nutqida ushbu formatga asos solinganidan buyon o'tgan 10-yilda mintaqaviy savdo, transport va energetika aloqalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari aylanib, mazkur uchrashuv bu formatning kelajakda yanada jozibador va keng qamrovli bo'lishi, Markaziy Osiyo va AQSH o'rtasidagi strategik muloqotni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berishini ta'kidladi.

Sammitda O'zbekiston tomonidan "S5+1" formati doirasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida qator tashabbuslar ilgari surildi.

Avvalo, iqtirokchi mamlakatlarda navbati bilan joylashtiriladigan doimiy faoliyat yuritadigan Kotibiyatni ta'asis etish taklif qilindi. U mintaqalar o'rtasidagi hamkorlikning tizimli va samarador bo'lishiga zamin yaratadi. Uning Markaziy Osiyo mamlakatlarida navbati bilan faoliyat yuritishi har bir davlatdagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud sharoitlar hamda to'liq bo'layotgan omillarni aniqlash, hal etishga real imkoniyat beradi.

O'zbekiston yetakchisi Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz va Yevropa bilan bog'laydigan yirik transport-kommunikatsiya va energetika loyihalarni amalga oshirishda AQSH bilan faol ishlashga tayyorligini bildirdi.

Ma'lumki, O'zbekiston bugungi kunda dunyoda barqaror iqtisodiy o'sishga erishayotgan davlatlardan bir hisoblanadi. Bunday iqtisodiy barqarorlikni ushlab tush, uni yanada yuksaltirish uchun tovar va xizmatlarning faol hamda erkin harakatlanishini ta'minlash lozim bo'ladi. Shuning uchun yangi va ishonchli transport yo'llari har qachongidan dolzarb ahamiyatga ega.

Tovar va xizmatlarning tez hamda erkin harakatlanishi yurtidoshlarimizning iqtisodiy-iqtisodiy faolligi oshishiga mustahkam zamin yaratadi. Natijada bandlik, doimiy daromadga ega bo'lish, ilmiy va yuqori texnologik hamkorlik imkoniyatini kengaytdi, yangidan-yangi ishloqlar ochilib beradi.

Jahondagi eng yirik, ilmiy va innovatsion iqtisodiyotlar bilan sheriklik mintaqasini istiqbol uchun, yurtimizda ijtimoiy masalalarni samarali hal qilish borish uchun nihoyatda muhimdir.

Ulug'bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi a'zosi.

